



QONUN USTUVORLIGI TAMOYILINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Yuldoshev Jaxongir Xayitovich

Toshkent davlat transport universiteti o'qituvchisi

Shaxzod Tohir o'g'li Egamov

Toshkent davlat transport universiteti, Yurisprudensiya yo'nalishi

4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada qonun ustuvorligi tamoyilining nazariy-huquqiy asoslari, uning shakllanish bosqichlari hamda zamonaviy demokratik jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Qonun ustuvorligi g'oyasining tarixiy ildizlari, xususan, Aristotel, John Locke va Montesquieu qarashlari asosida yoritilib, hokimiyatlar bo'linishi, inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi hamda davlat organlari faoliyatining qonun bilan cheklanishi masalalari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, qonun ustuvorligining konstitutsiyaviy mustahkamlanishi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy standartlar o'rtasidagi uyg'unlik masalalari ham ko'rib chiqilib, qonun ustuvorligini ta'minlashning dolzarb muammolari va ularning yechimlari yuzasidan xulosalar ilgari suriladi.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и правовые основы принципа верховенства права, этапы его формирования и роль в развитии современного демократического общества. Выделяются исторические корни идеи верховенства права, в частности, на основе взглядов Аристотеля, Джона Локка и Монтескье, а также научно и теоретически обосновываются вопросы разделения властей, гарантии прав и свобод человека и ограничения деятельности государственных органов законом. Раскрывается также важность конституционного укрепления верховенства



права, его значение в процессе построения правового государства и гражданского общества. В статье также рассматриваются вопросы согласования национального законодательства с международными правовыми нормами и предлагаются выводы о современных проблемах обеспечения верховенства права и их решениях.

Abstract. *This article analyzes the theoretical and legal foundations of the principle of the rule of law, the stages of its formation and its role in the development of modern democratic society. The historical roots of the idea of the rule of law are highlighted, in particular, based on the views of Aristotle, John Locke and Montesquieu, and the issues of the separation of powers, the guarantee of human rights and freedoms, and the limitation of the activities of state bodies by law are scientifically and theoretically substantiated. It also reveals the importance of the constitutional strengthening of the rule of law, its importance in the process of building a legal state and civil society. The article also considers the issues of harmony between national legislation and international legal standards, and puts forward conclusions on the current problems of ensuring the rule of law and their solutions.*

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy negizini inson huquqlari va qonun ustuvorligi tamoyillari tashkil etadi. Demokratik huquqiy davlat barpo etishda qonun ustuvorligi shunchaki yuridik termin emas, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi oliy qadriyatdir. Qonun falsafiy jihatdan narsa va hodisalar o'rtasidagi muhim, zaruriy, barqaror, takrorlanuvchi munosabat. Mazkur munosabat ob'yektiv voqelikka mansub bo'lsa, u voqelik qonulari deb yuritiladi. Voqelik qonunlarining inson tomonidan o'rganilib, muayyan nazariy tilga ko'chirilishi fan qonunlari deyiladi. Shu jihatdan fan qonunlari voqelik qonunlarining tafakkurda in'ikos etilishidir. Fan qonunlari, o'z navbatida, aks ettiruvchi ob'yektiga ko'ra, tabiat qonunlari, jamiyat qonunlari, tafakkur qonunlariga bo'linadi. "Экономика и социум" №3(94)-2 2022 www.iupr.ru 339 Tasodifiy yoki o'tkinchi munosabatlar esa qonunni asoslashga yetarli emas. Zaruriylik qonunning



muhim belgisidir, chunki undan kelib chiqadigan natijalarning yuz berishi muqarrardir.

Qonun tushunchasining mohiyati qonuniyat tushunchasiga yaqin turadi. Qonuniyat qonundan farqli ravishda sistemaning o'zgarishlaridagi barqaror jihatlarni va yo'nalishlarni ifodalaydi. Shu jihatdan, fanda statistik va dinamik qonuniyatlarga tayanib ish yuritiladi. qonunlar ob'yektlar o'rtasidagi, Sistema rivojlanishining turli holatlari va bosqichlari o'rtasidagi aloqadorliklarni ifodalaydi. Qonunlar o'zining umumiylik darajasi va ta'sir etish doirasiga ko'ra, xususiy, umumiy va eng umumiy qonunlarga bo'linadi. Xususiy qonunlar narsa va hodisalar o'rtasidagi nisbatan tor doiragi aloqalarni funksional tarzda aks ettiradi (masalan fizika qonunlari mexanikada tezliklarni qo'shish qonunlari, butun olam tortishish qonuni). Umumiy qonunlar narsa va hodisalarning umumiy xossalari o'rtasida munosabatni, eng umumiy qonunlar esa tabiat, jamiyat, tafakkur rivojining eng umumiy munosabatlarini, tomonlarini, taraqqiyotini va boshqa holatlarni ifodalaydi.

Qonun ustuvorligi va huquqiy davlat tushunchalari zamonaviy demokratik jamiyatning asosiy tayanch tushunchalaridan hisoblanadi. Bu ikki konsepsiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni bir-birisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki huquqiy davlatning mazmun-mohiyati aynan qonun ustuvorligiga asoslanadi. Avvalo, qonun ustuvorligi deganda davlat hokimiyati organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar birdek qonunga bo'ysunishi tushuniladi. Ya'ni, hech kim qonundan ustun turmaydi. Qonun – jamiyatdagi eng oliy me'yoriy kuchga ega hujjat bo'lib, barcha qarorlar va harakatlar unga mos bo'lishi shart. Agar davlat organlari yoki mansabdor shaxslar o'z vakolatini qonundan tashqarida amalga oshirsa, bu holat qonun ustuvorligi prinsipining buzilishi hisoblanadi. Huquqiy davlat esa shunday davlatki, unda inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladi, hokimiyat qonun bilan cheklanadi va sud mustaqilligi ta'minlanadi. Huquqiy davlatda davlat organlari o'z faoliyatini qonun asosida va qonun doirasida amalga oshiradi. Bu yerda davlat ham, fuqaro ham huquq oldida tengdir. Demak, qonun ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Agar davlatda



qonun ustuvorligi ta'minlanmasa, u haqiqiy huquqiy davlat bo'la olmaydi. Chunki huquqiy davlatning mohiyati shundaki, davlat hokimiyati o'zboshimchalik qilmaydi, balki qonun bilan cheklanadi. Bu esa fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish imkonini beradi.

Qonun ustuvorligini ta'minlashda Konstitutsiya asosiy bo'g'in bo'lib hisoblanadi. Konstitutsiya fuqarolar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni belgilab beradi va ularni tartibga soladi. Konstitutsiya asosida boshqa normativ huquqiy hujjatlar ham tuziladi va ular konstitutsiya asosida mustahkamlanadi. Konstitutsion norma har doim boshqa normalardan ustun turadi. Negaki, konstitutsion norma boshqa normalarning bosh bo'g'inini tshkil etadi. O'zbekiston Respublikasida qonun ustuvorligi, konstitutsiyaviy normalar bilan mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyamizning 15 va 16- moddalarida qonun ustuvorligi tan olinishi aniq belgilab qo'yilgan.

Bu moddalarni tahlil qilsak, asosiy qonunimiz mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Ushbu tamoyilga muvofiq, davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda barcha fuqarolar o'z faoliyatlarini faqatgina Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq tarzda olib borishlari shart. Milliy huquqiy tizimimizning ajralmas tarkibiy qismi sifatida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari e'tirof etiladi. Bunda xalqaro huquq normalari yuridik ustuvorlikka ega bo'lib, agar mamlakatimiz imzolagan xalqaro shartnomada milliy qonunchilikda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalariga amal qilinadi.

Qonun ustuvorligini ta'minlashning yana bir muhim sharti shuki, mamlakatdagi barcha qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar bevosita Konstitutsiya asosida hamda uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi, shuningdek, ularning birortasi Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo'lishi mumkin emas. Qolaversa, huquqiy tizimda ziddiyatlarning oldini olish maqsadida, Konstitutsiyaning birorta



qoidasi O'zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlariga yoxud uning asosiy prinsiplariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishiga mutlaqo yo'l qo'yilmaydi.

Demokratik davlatning eng oliy qadriyati — bu inson, uning hayoti, erkinligi va qadr-qimmatidir. Xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, inson huquqlariga oid paktlar shaxs erkinliklarini davlat ichidagi turli siyosiy o'zgarishlar va ehtimoliy inqirozlardan himoya qiluvchi barqaror "kafolat tizimi" bo'lib xizmat qiladi. Ular davlat hokimiyatining o'z vakolatlarini suiste'mol qilishiga yo'l qo'ymaydigan, inson huquqlari sohasidagi umume'tirof etilgan mezonlarni belgilab beradi. Boshqacha aytganda, xalqaro normalar fuqarolarning huquqlari shunchaki milliy qonunchilikning in'omi emas, balki ularning ajralmas, tug'ma haqqi ekanligini xalqaro darajada mustahkamlaydi.

Demokratik davlat yopiq tizimda rivojlana olmaydi. Xalqaro qonunlar va huquqiy paktlar milliy qonunchilikning doimiy ravishda takomillashib, jahon standartlariga moslashib borishini ta'minlaydi. Milliy qonunlarning xalqaro normalar bilan uyg'unlashuvi davlatning insonparvarlik prinsiplariga hamda o'z xalqaro majburiyatlariga sodiqligini namoyon etuvchi asosiy ko'rsatkichdir. Xalqaro qonunlarga qat'iy amal qilish xalqaro maydonda davlatning ishonchli va barqaror hamkor sifatidagi imijini shakllantiradi.

Bu o'z navbatida xalqaro iqtisodiy hamkorlik, savdo va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun eng muhim huquqiy poydevor hisoblanadi. Qolaversa, xalqaro huquq tizimi dunyo siyosatida faqatgina kuchlilar hukmronligi o'rnatilishining oldini olib, barcha davlatlarning, ularning hududi va iqtisodiy salohiyatidan qat'i nazar, suveren tengligi prinsipini kafolatlaydi. Yevropa Kengashi Venetsiya komissiyasining xulosasiga ko'ra, qonun ustuvorligi tamoyili o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan beshta asosiy mezonga tayanadi. Eng birinchi va o'zak mezon bu — qonuniylikdir. Bu qoida davlatda Konstitutsiya va qonunlarning mutlaq ustunligini, davlat idoralari faqat qonun doirasida harakat qilishini hamda xalqaro huquq normalarining milliy tizimda so'zsiz bajarilishini talab qiladi. Qonunlar jamiyatda amalda ishlashi uchun ikkinchi mezon — huquqiy aniqlik va ishonchlilik



ta'minlanishi zarur. Ya'ni, qonunlar va sud qarorlari barcha uchun ochiq hamda tushunarli bo'lishi, insonlar o'z xatti-harakatlarining huquqiy oqibatini oldindan ko'ra bilishi shart. Shuningdek, qonunlarning doimiy ravishda barqaror bo'lishi va orqaga qaytish kuchiga ega emasligi fuqarolarning huquqiy tizimga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Uchinchi mezon davlat idoralari tomonidan hokimiyatni suiiste'mol qilishning oldini olishga qaratilgan bo'lib, mansabdor shaxslarning o'zboshimchalik bilan qaror qabul qilishiga qarshi huquqiy kafolatlar, xususan, qat'iy sud nazorati o'rnatilishini taqozo etadi. To'rtinchi mezon bo'lmish qonun oldida tenglik va kamsitmaslik tamoyili esa, har bir shaxsning irqi, dini, tili yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, qonun himoyasida teng bo'lishini kafolatlaydi.

Nihoyat, qonun ustuvorligining beshinchi va eng muhim kafolati sifatida **odil sudlovga erishish** huquqi namoyon bo'ladi. Bu tamoyil sud, prokuratura va advokaturaning har qanday siyosiy ta'sirlardan to'liq mustaqil faoliyat yuritishini, shaxsning adolatli sud muhokamasiga, aybsizlik prezumpsiyasiga hamda qabul qilingan sud qarorlarining o'z vaqtida va samarali ijro etilishiga bo'lgan mutlaq huquqlarini o'z ichiga oladi.

Qonun ustuvorligi tamoyilining shakllanishida fransuz faylasufi va huquqshunosi Sharl Lui Monteskyoning "Qonunlar ruhi haqida"gi asari beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu asarning bosh g'oyasi davlat boshqaruvida o'zboshimchalikning oldini olish va inson huquqlarini kafolatlashga qaratilgan hokimiyatlar bo'linishi tamoyilidir. Monteskyo o'z asarida qonun ustuvorligini ta'minlashning yagona yo'li sifatida davlat hokimiyatini uchta mustaqil tarmoqqa: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga ajratish zarurligini ilmiy asoslab bergan. Uning ta'kidlashicha, agar qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat bir shaxs yoki bir muassasa qo'lida to'plansa, jamiyatda erkinlik bo'lmaydi. Chunki bunday sharoitda hukmdor yoki senat o'zi qabul qilgan qonunlarni o'z manfaati yo'lida, zolimona usullarda ijro etish xavfi yuzaga keladi. Xuddi shuningdek, agar sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan



mustaqil bo'lmasa, fuqarolarning hayoti va erkinligi ustidan adolatsiz hukmronlik o'rnatilishi muqarrardir.

Asarning qonun ustuvorligi mavzusiga bevosita daxldor bo'lgan ikkinchi muhim jihati — bu siyosiy erkinlik va qonun munosabatidir. Monteskyo erkinlikka klassik ta'rif berib, erkinlikni istagan narsani qilish emas, balki qonunlar ruxsat etgan hamma narsani qilish huquqi" ekanligini ta'kidlaydi. Ya'ni, fuqarolarning chinakam erkinligi faqatgina qonunlar mutlaq ustuvor bo'lgan joyda, qat'iy huquqiy tartibot o'rnatilgan jamiyatdagina mavjud bo'lishi mumkin. Qonunlar shu qadar aniq va tushunarli bo'lishi kerakki, hech bir shaxs qonunda ko'rsatilmagan harakati uchun javobgarlikka tortilmasligi lozim. Shuningdek, mutafakkir qonunlarning jamiyat bilan uzviy aloqadorligi, ya'ni "qonunlarning ruhi" tushunchasini ilgari suradi. Unga ko'ra, qonunlar shunchaki qog'ozga tushirilgan quruq qoidalar to'plami emas, balki ular muayyan xalqning iqlimi, turmush tarzi, dini, iqtisodiyoti va milliy urf-odatlaridan kelib chiqishi kerak. Faqatgina xalqning tabiati va ijtimoiy-tarixiy muhitiga mos keladigan, ijtimoiy adolatga asoslangan qonunlarga jamiyat tomonidan hurmat qilinadi va amalda o'z ustuvorligini to'liq namoyon eta oladi.

Xulosa

Jamiyat va davlatning chinakam taraqqiyoti faqatgina qonun ustuvorligi to'liq ta'minlangan muhitdagina amalga oshishi mumkin. Qonun shunchaki qog'ozga tushirilgan buyruqlar yoki quruq yuridik atamalar to'plami emas, balki u inson erkinligi, xavfsizligi va qadr-qimmatini o'z ichiga oluvchi o'zboshimchaliklarga qarshi eng kuchli qalqondir. Tarixiy mutafakkirlar, Monteskyo ta'kidlaganidek, insonning haqiqiy erkinligi istagan ishni qilishida emas, balki qonun ruxsat etgan doirada erkin va xavfsiz yashashidir. Buning uchun esa davlat hokimiyati bo'linishiga asoslanishi, qonunlar esa xalqning dardi, yashash tarzi va ruhiyatiga mos kelishi lozim. Bugungi kunda barpo etilayotgan huquqiy davlatning asl mohiyati ham shunda. Qonun oldida barcha oddiy fuqarodan tortib eng yuqori mansabdor shaxsgacha birdek teng bo'lishi kerak. Konstitutsiya va xalqaro huquq normalarining ustunligi, adolat va kamsitmaslik mezonlari quruq shior emas, balki



kundalik hayotda ishlaydigan mexanizmga aylangandagina tizim to'g'ri faoliyat yuritadi. Qonun ustuvorligi ta'minlanmagan joyda inson huquqlari kafolatlanmaydi, adolatga bo'lgan ishonch yo'qoladi va rivojlanish to'xtaydi. Qonunlar xalqni qo'rqitish yoki jazolash uchun emas, balki hokimiyatni tartibga solish, tartib o'rnatish va odamlarga xizmat qilish uchun ishlagandagina chinakam barqaror va insonparvar jamiyat bunyod etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. European Commission for Democracy through Law (Venice Commission). Rule of Law Checklist. CDL-AD(2016)007. Strasbourg, 18 March 2016.
2. **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi** (yangi tahrir). – T.: “O'zbekiston”, 2023.
3. **Odilqoriyev H.T.** Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: “Adolat”, 2021.
4. Монтескье Ш.Л. О духе законов. – М.: Мысль, 1999